

GAZETA TILIDA FRAZELOGIZIMLARNING QO'LLANILISHI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Xamidova Zulfizar Abdurauf qizi

Jizzax davlat pedagogik univrsiteti 1-bosqich magistranti Email: zulfizarxamidova4@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqola gazeta matnlarida frazeologizmlarning qo'llanishi, gazeta tilining o'ziga xos ahamiyati va shu o'rinda mustaqillik davri matnlarida uchraydigan frazeologizmlar haqida atroflicha fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: gazeta tili, frazeologizmlar, matn, obrazlilik, matbuot, publitsist uslub.

Hozirgi kunda tilni rivojlantirishga e'tibor va talab har qachongidan yuqori bo'lganligi sababli gazeta tilida yangilash va o'sish jarayoni kundan kunga oshib bormoqda. O'zbek tilshunosligida gazeta tilining tadqiq etilishi bo'yicha bir qancha o'ziga xos tadqiqotlar yaratildi. Abduvali Abdusaidov "Jurnalistning tildan foydalanish mahorati" nomli monografiyasida gazeta tilini o'rganishga doir bir qancha ma'lumotlar aytib o'tilgan.

Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida gazeta leksikasi, vaqtli matbuotda baynalmilal so'z va terminlar qo'llash hamda "Mushtum" jurnali leksikasi va frazeologiyasining semantik-stlistik xususiyatlari, gazeta nutqi, gazeta sarlavhalari va gazeta tilining publitsistik uslubidagi o'rni kabi bir qator tadqiqotlari mavjud.

Bugungi kunda til har qanday jamiyatning madaniyati, o'zing milliy dunyoqarashini aks ettirib ijtimoiy hayotning asosiy ko'rinishiga aylangan. Gazeta tili esa ijtimoiy siyosiy va madaniy hayotni yoritib uning ko'lamini kengaytiradi. Unda aniqlik, lo'ndalik katta ahamiyatga ega. Shuningdek gazeta tili va uning asosiy xususiyatlarini yoritishda ekspressivlik va obrazlilik eng asosiy talablardan biri hisoblanadi.

Ushbu talablar bevosita frazeologizmlar orqali yuzaga chiqadi. Publitsistik uslubda gazeta tilining o'ziga xos o'rini va xususiyatlari mavjud. A.Abdusaidov, A.Boboyeva, K. Yusupov kabi mashhur tilshunoslar gazeta tilidagi bir qancha belgilarni sanab o'tishgan. Bunday belgilarni ichida eng birinchi navbatda gazeta tilida yozma adabiy til o'ziga xos legvistik belgilarga ega ekanligini alohida yoritilgan.

Shuningdek, gazeta tilida ekspressivlik o'ziga xos tarzda ifodalanishi bilan birga gazeta matnida ta'sirchanlik, ommaviylik, obrazlilik, emotsionalilik, aniqlik va ixchamlik kabi bir qator belgilar alohida e'tiborga olingan. Shuni alohida ta'kidlash joizki gazeta tilida obrazlilik, ixchamlik adabiy tilning, xususan, frazeologizimlarning boyishiga katta hissa qo'shadi.

Gazeta tilida matn o'quvchiga tez va oson yetib borishi, o'quvchida emotsiya uyg'otish, matn mazmunini tushunarli tarzda berish asosiy xususiyatlardan biri sanaladi.

Shu sababli gazeta matnda frazeologizmlar katta ahamiyatga ega. Frazeologizimlarning publitsistik matnning eng ta'sirchan va matn mazmunini boyituvchi birliklardan biri hisoblanadi. Bu, asosan, o'quvchiga bir qarashda tushunarli bo'lgan tayyor obrazlar yordamida jonli shaklida yetkazilishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, mustaqillikdan keyingi

yillarda gazetalarda bunday birliklarning qo'llanilishi sezilarli darajada ko'paygan. Shuningdek, uslubiy imkoniyatlari boyigan bu bilan birga mazmun ko'lami ancha kengaygan.

Mustaqillik yillaridan boshlab O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida erkinlikning o'sishi, yangi jurnalistka maktablarni shakllanishi, ijtimoiy-siyosiy voqeyliklarni yangicha talqini, tilning stilistik vositalarni, xususan, frazeologizmlarning gazeta matnlarida qo'llanilishi yanada faollashadi. Aynan 1991-yildan boshlab O'zbekiston jurnalistikasida yangilash jarayonlari yuqori cho'qqiga chiqqan boshladi. Erkin fikr, o'z so'zini baralla, dadil aytish hamda publitsistik uslubning jonlanilishi va frazeologizmlarning qo'llanilishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

"O'zbekiston ovozi", "Xalq so'zi", "Hurriyat", "Darakchi", "Yangi O'zbekiston", "Mahalla" kabi bir qator gazetalarda xalqona iboralar, maqol va matalga yaqin bo'lgan jumlar o'zining boy salmog'i bilan gazeta matnlarida qo'llanila boshlandi.

Frazeologizmlarning gazetda matning asosiy stilistik vositalardan biriga aylandi. U gazeta matnida bir qator vazifalarni bajaradi. Asosan, matnni ta'sirchanligini oshiradi. Shuningdek, matnga milliy ruh bag'ishlaydi. Frazologizmlar orqali o'quvchiga fikr qisqa, lo'nda va mazmunli tarzda yetkaziladi. Masalan: "xalq ko'ngliga yo'l topmoq", "keng quloq yozmoq", "ko'z quvonchi", "ko'z-ko'z qilmoq" kabi iboralar gazeta matnlarida faol qo'llaniladi.

Frazeologizmlar gazeta matnida gazeta stilini boyitib, voqeani jonli tasvirlash, uni o'quvchi ko'z o'ngida gavdalandirish uchun qo'llaniladi. Fikrni ixchamlashtirish, obrazlilik, emotsionalilik, ekspersivlikni kuchaytirish kabi turlari mavjud. Bularidan fikrini ixchamlashtirish turi alohida ahamiyatga ega bo'lib mazmuni kengligi bilan boshqa turlaridan ajralib turadi.

Bu turga "ko'z ochib yumguncha" iborasini kiritsak bo'ladi. Bu ibora tez, bir zumda ma'nosida qo'llanilib fikrni ixchamlashtirish shakliga ega. Yoki bo'lmasa "pichoq ustida turmoq" iborasi qo'rqqmoq, tahlikali vaziyat ma'nolarida kelib bu ibora ham aynan fikrni ixchamlashtirishda qo'l keladi. Shuningdek frazeologizmlarning semantik stilistik xususiyatlaridan yana bir turi obrazlilik hisoblanadi.

Bunga misol qilib "hayot sinovlarida toblangan xalq" iborasini aytsak bo'ladi. Gazeta matnlaridan olingan ushbu iboralar orqali o'quvchi ko'z o'ngida bardoshli xalq, oxir sinov va qiyinchiliklarga tushgan xalq namoyon bo'ladi. Bu esa o'quvchini bevosita obrazlilik yaratish, voqeani jonli his qilishiga yordamchi bo'ladi. Bundan tashqari "Taraqqiyot yo'lida qo'l qovushtirib turish vaqti emas" kabi gazeta matnidagi iboralar ogohlantirish mazmunga ega obrazli ibora hisoblanadi.

Frazologizmlar gazeta uslubida turlicha vazifalarni bajaradi. Buni o'z navbatida ikki qismga bo'lish mumkin. Biri siyosiy publitsistik frazeologizmlar, ikkinchisi xalqona obrazli iboralar hisoblanadi. Xalqona obrazli iboralar asosan kundalik nutqda uchraydigan juda faol, o'quvchiga tanish bo'lgan iboralardir. Bularga "ko'ngli yorishmoq", "besh qo'l barobar emas" kabi iboralarni kiritsa bo'ladi. Siyosiy publitsistik frazeologizmlarga esa asosan mustaqillik davridan keyin shakllangan iboralar bo'lib "Islahotlarning yangicha talqini", "

Taraqqiyot poydevori" kabi bir qator iboralar gazeta matnlaridagi eng faol frazologizmlar sanaladi.

Mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan so'ng ommaviy axborot vositalari sohasi har jihatdan yuksaladi. Poytaxtda O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq so'zi" gazetasi nashr etildi. O'zbekiston milliy kutubxonasi matbuot xizmatining bir qator ma'lumotlariga ko'ra, yurtimizda eng ko'p tarqalgan besh nomdagi gazetalar aniqlanadi.

Bu "O'zbekiston ovozi", "Hurriyat", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi" hamda "Ishonch" kabi gazetalaridir. Bu kabi gazetalar matnida albatta tez-tez frazologizmlarni uchratishimiz mumkin.

Masalan: "Xalq so'zi" gazetasining 245-sonida "yangi bosqichidagi islohotlar xalqimiz ko'nglidan joy oldi". Bu kabi frazologizmlar gazeta matnlaridagi tilining badiiy imkoniyatlarini kengaytiradi va matndagi emotsional ta'sirchanlikni oshiradi. Shuningdek gazeta matnlarida bu kabi frazologizmlarni qo'llanilishi avvalo o'quvchi e'tiborini tortib, matn mazmunini yanada tushunarli bo'lishiga yordam beradi. Bu bilan birga bu kabi iboralar tilimizning boyligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda gazeta tili an'anaviy xalqona frazeologizmlar va zamonaviy publitsistik iboralarning uyg'unlashuvi orqali boyib bormoqda. Bu frazologizmlar nafaqat legvistik, balki madaniy va ijtimoiy jihatdan ahamiyatli hisoblanadi. Gazeta matnlaridan xalqona iboralar, maqollar, yangi siyosiy frazeologizmlar, publitsistik obrazlarning keng qo'llanilishi bugungi kunda tilga bo'lgan e'tiborni yanada oshib borayotganidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdusaidov A. Jurnalistning tildan foydalanish mahorati. Samarqand-2004.
2. Boboyeva A. Gazeta publitsistikasi // O'zbek tili va adabiyoti.-Toshkent,1986.
3. Boboyeva A. Gazeta tili haqida. Toshkent:Fan,1983.
4. Tog'ayev O. Publitsistika janrlari.-Toshkent:O'qituvchi, 1976.
5. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11063529>